

MEVA-SABZAVOTLARNI QAYTA ISHLOVCHI KORXONALARDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Xudoyberganova Dilnoza Anvarjon qizi

Menejment fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Farg'ona davlat texnika universiteti

+998 94 499 33 22

d.a.xudoyberganova@fstu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida meva-sabzavotchilik korxonalarini boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqotda qishloq xo'jaligi tarmog'ining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni, meva-sabzavotchilik sohasining rivojlanish tendensiyalari hamda uning eksport salohiyati tahlil qilingan. Shuningdek, dehqon xo'jaliklari, agrosanoat klasterlari va qayta ishlovchi korxonalar o'rtasidagi integratsiya jarayonlari o'rganilib, resurslardan samarali foydalanish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan yondashuvlar asoslab berilgan. Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish, klaster tizimini rivojlantirish va eksport imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan hamda global oziq-ovqat xavfsizligi muammolari sharoitida qishloq xo'jaligi tarmog'ini, xususan, meva-sabzavotlarni qayta ishlovchi korxonalarni innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish zarurati asoslab berilgan. Mahalliy va xorijiy olimlarning sohaga oid ilmiy qarashlari, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan maqsadlar hamda meva-sabzavotchilikda qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish masalalari, sohani raqamlashtirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va korxonalarning boshqaruv samaradorligini baholash mezonlari tahlil qilingan. Shuningdek, qayta ishlash korxonalarining xomashyo tizimi bilan uzviy bog'liqligi hamda korxona faoliyatini boshqarish samaradorligini baholash mezonlari (moliyaviy, ishlab chiqarish, logistika va kadrlar) ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, meva-sabzavotchilik, qayta ishlovchi korxonalar, innovatsion yondashuv, raqamli texnologiyalar, qo'shilgan qiymat zanjiri, klaster tizimi, boshqaruv samaradorligi, resurslarni boshqarish, moliyaviy ko'rsatkichlar.

KIRISH

Dunyo aholisi sonining muntazam o'sib borishi, qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy muammolar, shuningdek, iqlim sharoitini o'zgarishi natijasida yerlarning meliorativ holatini buzilishi va suv tanqisligini vujudga kelishi oziq-ovqat xavfsizligini global muammoga aylantirmoqda. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo miqyosida ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlarining taxminan uchdan bir qismi, ya'ni 1,3 milliard tonnaga teng hajmi qayta ishlanmasligi sababli isrof bo'lmoqda. Ushbu jarayonda qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish strategiyalarini belgilash, jumladan, meva-sabzavotlarni qayta ishlovchi korxonalarning samarali boshqaruv jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni va innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali rivojlantirish va shu

kabi muammolarni hal etishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borish zarurati paydo bo'lmoqda.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar meva-sabzavotchilik sohasida qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishni rag'batlantirish, sifatli meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish va uning eksporti barqarorligini ta'minlash, mazkur mahsulot ishlab chiqaruvchilarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan. Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va qishloq xo'jaligi tarmog'ini rentabellik darajasini oshirish maqsadida O'zbekiston - 2030 strategiyasida "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash ko'rsatkichining 25 foizdan yuqori bo'lishini ta'minlash ... ko'zda tutilgan". Bugungi kunda, mamlakatimizda meva-sabzavotlarni qayta ishlovchi korxonalarni rivojlantirishda modernizatsiyalash jarayonlarini takomillashtirish, zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish, mahsulotlarni qayta ishlash jarayonlariga raqamli texnologiyalarni jalb etish, aholini meva-sabzavot mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishda intensiv texnologiyalardan foydalanish, jahon oziq-ovqat bozorida meva, uzum va sabzavotlarning eksport hajmini oshirishda faol marketing siyosatini olib borish, sohada klaster tizimini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida meva-sabzavotchilik tarmog'ini istiqbollari, qishloq xo'jaligi sohasida meva-sabzavotlarni qayta ishlovchi korxonalarda resurslarni boshqarish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va boshqarishni hududiy rivojlantirishning ayrim nazariy va amaliy jihatlarini respublikamiz iqtisodchi olimlari, jumladan, MDH olimlaridan mazkur soha bo'yicha O.G.Mihaylenko, O.N.Onejkina, M.M.Butakova, I.F.Xitskov, V.A.Voytyuk, A.I.Gavrilov, N.I.Klepikova[1,2,3,4,5] va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

O.A.Buryanova, M.M.Butakova, I.F.Xitskovlar o'z tadqiqotlarida "Meva-sabzavotlarni qayta ishlovchi korxonalarining asosi sifatida, bir tomondan, tayyor mahsulotlarning iqtisodiy samarasi hisoblangan, boshqa tomondan - sarflanadigan xomashyoning yaratilishi va mahsulot ishlab chiqarish va sotishning turli ko'rinishlari va xususiyatlarini chuqur o'rganib chiqishgan"[6,7,8].

Meva-sabzavotlarni qayta ishlovchi korxonalarni rivojlantirishning nazariy-uslubiy jihatlarini kompleks tarzda o'rgangan xorijlik olimlardan Carl E.Pray o'z ilmiy faoliyatini qishloq xo'jaligi innovatsiyalari va iqtisodiy siyosat yo'nalishida olib borgan. Unga ko'ra "Rivojlanayotgan davlatlarda ilm-fan yutuqlarini, xususan biotexnologiyalarni joriy qilishning iqtisodiy natijalari, ularning meva-sabzavotchilik hamda oziq-ovqat xavfsizligiga ta'siri va innovatsiyalarni siyosiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini o'rganadi"[9].

Shuningdek, meva-sabzavotlarni qayta ishlovchi korxonalarni rivojlantirish yuzasidan mahalliy olimlardan A.A.Safarov o'zining tadqiqotlarida O'zbekistonda yetishtirilayotgan meva va sabzavot mahsulotlarini chuqur qayta ishlash korxonalarining iqtisodiy samaradorligi bo'yicha kompleks tarzda izlanishlar olib borgan. Qayta ishlovchi korxonalar faoliyatining mavjud holati, ularning ishlab

chiqarish quvvati, mavjud texnologik bazasi, mahsulotning eksportga yo'naltirilish darajasi va ushbu sohada duch kelinayotgan tizimli muammolar yuzasidan tadqiqotlar olib borgan. Unga ko'ra, O'zbekistonda meva-sabzavotlarni faqat xomashyo holatida emas, balki chuqur qayta ishlangan holda eksport qilish orqali nafaqat tashqi bozorlardagi raqobatbardoshlikni oshirish, balki ichki bozorni ham yuqori sifatli, tayyor iste'mol mahsulotlari bilan ta'minlash imkoniyati mavjud. Shuningdek, A.A.Safarov chuqur qayta ishlovchi korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari bo'yicha yillik dinamikasini o'rganib, ularda zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish darajasi va ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilgan[4].

H.Yuldasheva esa tadqiqotlari davomida meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash jarayonlarida yuzaga keladigan yo'qotishlarni tahlil qilib, ularni kamaytirish orqali mahsulotga qo'shilgan qiymatni oshirish imkoniyatlarini o'rgangan. Olib borgan tahlillarida ayniqsa, meva-sabzavotlar qisqa saqlanish muddatiga ega bo'lganligi sababli, hosil yig'imidan to tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan zanjirda samaradorlikni oshirish zarur ekanini ta'kidlaydi.

METODOLOGIYA

Meva-sabzavotlarni qayta ishlovchi korxonalar faoliyatini tashkil etish jarayoni bevosita agrar tizimining qishloq xo'jaligi hamda ularning xomashyo resurslarini yetkazib berish tizimi bilan uzviy bog'liqlikdagi aloqada ekanligi inobatga olinsa yer resursi esa qishloq xo'jaligiga asos hisoblanadi, shu ketma-ketlikda ular uzluksizlikni ta'minlab boradi.

Meva-sabzavotlarni qayta ishlovchi korxonalar faoliyatining boshqaruv jarayonlarini olib borishda faoliyatni amalga oshirish davomida boshqarish uchun qo'llanadigan tizimlarning umumiy tavsifi tushuniladi. Ushbu jarayonlar o'z ichiga: ishlab chiqarish, ishchi-xodimlar, tashqi aloqalar hamda korxona faoliyatiga doir boshqa jarayonlarni qamrab oladi.

Meva-sabzavotlarni qayta ishlovchi korxonalar faoliyatining boshqaruv jarayoni asosan rahbarlar darajasida boshlanadi. Shuningdek, rahbarlar bilan bevosita muloqotda bo'lgan o'rta bo'g'in boshqaruvchilari tomonidan amalga oshiriladi. Meva-sabzavotchilik tarmog'ida butun boshli faoliyatni boshqarish jarayoni bu – iqtisodiy tizim qonuniyatlariga sezilarli darajada ta'sir o'tkazish bilan birgalikda to'laqonli meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarishga qaratilgan jarayondir.

Iste'molchilarning eng zarur ehtiyojlarini qondirishi meva-sabzavot mahsulotlari orqali amalga oshadi. Natija sifatida insoniyatning hayot tarzi yaxshilanadi. Jahon mamlakatlaridagi hozirgi vaziyat, bir tomondan, uchinchi dunyo mamlakatlarida juda ko'p och odamlarning mavjudligi bilan, boshqa tomondan, rivojlangan mamlakatlarda ortiqcha oziq-ovqat ishlab chiqarish va uning iste'moli bilan harakterlanadi[10].

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshqaruv samaradorligini baholash – bu boshqaruv tizimini tahlil qilish va uni korxonaning barcha bo'linmalari samaradorligiga ta'sirini baholashidir. Boshqaruv samaradorligini baholash jarayonida korxona faoliyatining barcha sohalarida

boshqaruv faoliyatining qanchalik samarali yo'lga qo'yilganligi orqali aniqlanadi. Boshqaruv faoliyatining zamonaviy amaliyotida rentabellik hamda likvidlik kabi ko'rsatkichlar an'anaviy ravishda uning samaradorligini baholash uchun ishlatiladi. Ushbu asosiy ko'rsatkichlarni hisoblash uchun korxonaning statistik ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Boshqaruv samaradorligini aniqlash ko'rsatkichlarini belgilash va tahlil qilish har qanday tashkilot yoki korxona uchun muhim strategik ahamiyatga ega. Chunki samarali boshqaruv tizimi - bu faqat rahbarlik faoliyatining tashkiliy tuzilmasi emas, balki resurslardan oqilona foydalanish, vaqtida va to'g'ri qarorlar qabul qilish, xodimlarni samarali boshqarish va tashqi muhitga moslashuvchan javob qaytarish qobiliyatidir. Mazkur ko'rsatkichlar boshqaruv faoliyatini aniq, o'lchab bo'ladigan va baholashga yaroqli jihatlarini ko'rsatib beradi. Ular yordamida korxonada boshqaruv qanday tashkil etilganligi, rejalashtirish va ijro intizomi darajasi, axborot almashinuvi sifatli yo'lga qo'yilganmi yoki yo'qmi, xodimlar o'z ishidan qoniqish hosil qilyaptimi, degan savollarga aniq va tizimli javob olish mumkin bo'ladi. Ayniqsa bugungi raqamli iqtisodiyot va raqobat muhitida tezkorlik, shaffoflik va natijadorlik boshqaruvning eng asosiy talablari hisoblanadi. Ana shunday sharoitda boshqaruv samaradorligini aniqlovchi ko'rsatkichlar orqali rahbarlar o'z faoliyatining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashi, zarur hollarda jarayonlarni takomillashtirishi yoki yangi strategiyalar ishlab chiqishi mumkin. Meva-sabzavotlarni qayta ishlovchi korxonalar faoliyatini tashkil etish jarayoni bevosita agrar tizimining qishloq xo'jaligi hamda ularning xomashyo resurslarini yetkazib berish tizimi bilan uzviy bog'liqlikdagi aloqada ekanligi inobatga olinsa yer resursi esa qishloq xo'jaligiga asos hisoblanadi, shu ketma-ketlikda ular uzluksizlikni ta'minlab boradi.

Meva-sabzavotlarni qayta ishlovchi korxonalarni boshqaruv samaradorligini baholash ushbu korxonalarning umumiy iqtisodiy faoliyatiga va ularning bozordagi raqobatbardoshligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Samaradorlikni aniqlash uchun bir qator mezonlar va ko'rsatkichlar inobatga olinadi, ular orqali korxona faoliyatining natijalari baholanadi. Xususan, moliyaviy ko'rsatkichlar, ishlab chiqarish samaradorligi, innovatsion faoliyat samaradorligi, logistika va ta'minot zanjirini boshqarish samaradorligi, xodimlar boshqaruvi va inson resurslari samaradorligi kabi ko'rsatkichlar shular jumlasidandir (1-jadval).

1-jadval

Meva-sabzavotlarni qayta ishlovchi korxonalarning boshqaruv samaradorligini baholashning umumiy ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlar	Xususiyati
1	Moliyaviy ko'rsatkichlar asosida baholash	
	Rentabellik ko'rsatkichi: Sof foyda / Umumiy xarajatlar × 100	Jami aktivlar rentabelligi, sof foyda marjasi, aksiyadorlik kapitali rentabelligi kabi ko'rsatkichlar korxonaning foyda olish qobiliyatini baholashga imkon beradi.
	Likvidlik ko'rsatkichlari: Joriy aktivlar / Joriy majburiyatlar	Joriy likvidlik, tezkor likvidlik va kassa likvidligi ko'rsatkichlari korxonaning qisqa muddatli moliyaviy majburiyatlarini qoplash qobiliyatini ko'rsatadi.

	Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari: O'z mablag'lari / Umumiy aktivlar	Qarzdorlik darajasi, umumiy qarz/aktivlar nisbati kabi ko'rsatkichlar korxonaning moliyaviy xavflarni boshqarish darajasini baholashga yordam beradi.
2	Ishlab chiqarish samaradorligini baholash	
	Mehnat unumdorligi: Yalpi mahsulot hajmi / Ishchilarning o'rtacha soni	Ishchilarning mahsuldorligi, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi va mehnat sarfi orasidagi nisbat.
	Resurslardan foydalanish ko'rsatkichi: Yalpi mahsulot / Foydalanilgan resurslar qiymati	Xomashyo, suv, energiya va boshqa resurslarning samarali ishlatilishi.
	Mahsulot sifatini baholash: Sifatli mahsulotlar soni / Umumiy mahsulot soni $\times 100$	Mahsulotning standartlarga mosligi, xaridorlarning qoniqish darajasi va qaytarib olishlar soni.
3	Xodimlar boshqaruvi va inson resurslari samaradorligi	
	Xodimlar aylanmasi ko'rsatkichi: (Korxonani tark etgan xodimlar soni / O'rtacha yillik xodimlar soni) $\times 100$	Xodimlar ketishi va yangi ishchilar qabul qilish darajasi.
	Xodimlarning malaka oshirishi va rivojlanishi: Malaka oshirgan xodimlar soni / Umumiy xodimlar soni $\times 100$	Malaka oshirish dasturlarida qatnashish darajasi, xodimlarning yangi texnologiyalarni qabul qilishga tayyorligi.

Meva-sabzavotlarni qayta ishlovchi korxonalar faoliyatining boshqaruv jarayonlarini olib borishda faoliyatni amalga oshirish davomida boshqarish uchun qo'llanadigan tizimlarning umumiy tavsifi tushuniladi. Ushbu jarayonlar o'z ichiga: ishlab chiqarish, ishchi-xodimlar, tashqi aloqalar hamda korxona faoliyatiga doir boshqa jarayonlarni qamrab oladi.

MUHOKAMA

Meva-sabzavotchilik tarmog'i O'zbekiston qishloq xo'jaligi sektorining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ham dehqon, ham fermer xo'jaliklari uchun eng foydali faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston zaminida ozuqaviy qiymati yuqori, o'ziga xos ta'm xususiyatlariga ega, jahon bozorlarida ham ma'lum bo'lgan meva-sabzavotlar yetishtirilmoqda. Meva-sabzavotchilik sektorida mamlakatimiz YaIMining qariyb 7 foizi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 27 foizi ishlab chiqariladi.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasida barcha toifadagi xo'jaliklarda yetishtiriladigan meva-sabzavot mahsulotlari tahlili (ming tonna)[1].

Yillar	Sabzavotlar	Mevalar va rezavorlar	Yong'oq mevalilar	Subtropik mevalar	Rezavor mevalar	Sitrus mevalar
2015	9390,0	2467,9	87,3	141,3	10,0	4,8
2016	10184,0	2612,9	99,4	160,2	11,2	5,8
2017	10219,9	2614,9	111,0	142,6	11,0	3,5
2018	9760,3	2706,2	85,7	163,3	8,2	11,9
2019	10215,1	2752,7	90,6	190,4	11,0	9,5
2020	10020,2	2812,6	111,6	198,2	13,4	10,0

2021	10850,2	2852,6	108,6	197,8	14,1	9,9
2022	11162,9	2999,3	109,1	186,7	12,5	10,6
2023	11553,7	3121,7	104,3	173,1	13,7	11,2
2024	11 994,8	3 271,2	104,7	174,2	13,9	11,7

Tahlil natijalaridan ko‘rish mumkinki, mamlakatimizda meva-sabzavotchilik sektori yildan yilga o‘sib bormoqda. 2015-yilga nisbatan 2024-yilda sabzavotlar 127,7 % ga, mevalar va rezavorlar 132,5 % ga, yong‘oq mevalilar 119,9 % ga, subtropik mevalar 123,2 % ga, rezavor mevalar 139 % ga, sitrus mevalarini yetishtirish esa 243,7 % ga o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin.

Aytish joizki, “Ayni paytda O‘zbekiston meva-sabzavotga bo‘lgan o‘rtacha yillik ehtiyojining qariyb 96 foizini o‘z ishlab chiqarishi hisobidan ta‘minlamoqda. Hozirda mamlakat o‘rik yetishtirish bo‘yicha dunyoda 2-o‘rin, sabzi yetishtirish bo‘yicha 3-o‘rin, gilos yetishtirish bo‘yicha 4-o‘rin, bodring yetishtirish bo‘yicha 7-o‘rin, olcha va anjir yetishtirish bo‘yicha esa 8-o‘rinda turadi”[12].

Aholi sonining ortib borishi, butun dunyo bo‘ylab oziq-ovqat xavfsizligi masalalariga katta e‘tibor qaratilayotgan bir vaqtda dehqon xo‘jaligi mahsulotlariga, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talab tobora ortib bormoqda.

3-jadval

Respublika viloyatlari kesimida barcha toifalardagi xo‘jaliklar tomonidan yetishtirilgan mevalar va rezavorlar[2] (ming tonna)

Hududlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	41	43,7	47	49,4	56,1	57,9	62	63,5	67,1	73,6
Andijon viloyati	530,6	558,7	568,7	606	633,4	633,9	664	675,1	685,9	699,9
Buxoro viloyati	239,9	267,6	269,6	280,3	289,6	303,5	268	292	305,8	316,5
Jizzax viloyati	82,3	86,6	87	82,5	87,7	88,3	89,8	89,7	100	100,2
Qashqadaryo viloyati	130	143,4	163,4	180,2	170,9	163,2	158	165,6	175,6	186,5
Navoiy viloyati	92,3	97,1	98,3	97,8	99,1	103,6	105,9	101,1	106,5	112,0
Namangan viloyati	224,1	244,6	241,6	267,6	267,7	283,2	312,8	346,4	374,1	395,2
Samarqand viloyati	360,9	379,2	385	334	334,8	345,8	347,5	356,3	368,2	401,8
Surxondaryo viloyati	137,8	154,5	137,4	154,6	157,4	164,5	173,2	180,1	182,3	190,6
Sirdaryo viloyati	36,7	43,7	43,8	39,3	39,3	40,3	40,4	44,3	46,4	48,8
Toshkent viloyati	109,7	109,9	101,2	141,2	129,6	114,4	109,3	134	126	130,4
Farg‘ona viloyati	335,4	336,6	323,6	324	333,9	364,3	367,3	386,3	411,4	436,3
Xorazm viloyati	147,2	147,3	146,6	148,2	152	148,5	153,4	163,4	170,9	178,1
Toshkent shahri	0	0	1,7	1,1	1,2	1,2	1	1,5	1,5	1,4

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rish mumkinki, mamlakat hududidagi barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan yetishtirilgan mevalar va rezavorlarning katta qismi Andijon viloyatiga to‘g‘ri kelgan. Hududda 2015-yilda meva va rezavorlarni yetishtirish 530,6 ming tonnani tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib mazkur ko‘rsatkich 699,9 ming tonnani tashkil etgan. 2024 yil yakunlariga ko‘ra mevalar va rezavorlarni yetishtirish Buxoro viloyati 316,5, Jizzax viloyati 100,2, Qashqadaryo viloyati 186,5, Navoiy viloyati 112,0, Namangan viloyati 395,2, Samarqand viloyati 401,8, Surxondaryo

viloyati 190,6, Sirdaryo viloyati 48,8, Toshkent viloyati 130,4, Farg'ona viloyati 436,3, Xorazm viloyati 178,1, Toshkent shahrida 1,4 ming tonnani tashkil etgan.

Meva va sabzavot mahsulotlarini yetishtirish uchun bir qator muhim shart-sharoitlar bo'lishi lozim. Chunki mazkur mahsulotlar har xil iqlimda yetishtirilishga moslashgan. Mamlakatimiz hududlarida ham turli xil iqlim sharoitlari mavjud bo'lganligi sababli hududlar kesimida meva-sabzavotlarni yetishtirish hajmi turlichadir. Shuningdek, meva va sabzavotlar uchun azot, fosfor va kaliy kabi muhim oziq moddalar bilan boyitilgan tuproq unumdorligi ham muhim ahamiyatga egadir.

XULOSA

Meva-sabzavotchilik tarmog'i global oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholining sifatli va ekologik toza mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish hamda mamlakat eksport salohiyatini oshirishda iqtisodiyotning eng yuqori drayver sohalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda tarmoqni rivojlantirish shunchaki xomashyo yetishtirish hajmini oshirish bilan cheklanib qolmay, balki mahsulotlarni chuqur qayta ishlash darajasini yuksaltirish, ishlab chiqarishga intensiv va raqamli texnologiyalarni jalb etish hamda qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishni taqozo etmoqda. Bu borada dehqon xo'jaliklari va agrosanoat klasterlari o'rtasidagi integratsiyani mustahkamlash, xomashyo yetkazib berishdan to tayyor mahsulotni eksport qilishgacha bo'lgan barcha bosqichlarda uzluksizlikni ta'minlash iqtisodiy barqarorlikning bosh omilidir. Tarmoqning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlash va kutilmagan iqlimiy hamda iqtisodiy xavf-xatarlarga chidamliligini oshirish esa bevosita qayta ishlovchi korxonalarda boshqaruv tizimini zamonaviylashtirishga bog'liq. Korxonalarining umumiy faoliyati samarasini oshirish uchun nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini, balki moliyaviy barqarorlik, innovatsion faollik, logistika, ta'minot zanjiri va inson resurslarini boshqarish mezonlarini kompleks tarzda takomillashtirish hamda faol marketing siyosatini olib borish strategik ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Михайленко О.Г. Международная торговля сельскохозяйственными товарами в достижении Целей устойчивого развития: автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.02. Днепр, 2018. 26 с.;
2. О.Н.Онежкина. // Функционирование и развитие рынка овощной продукции. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Ставрополь, 2020г.; Бутакова М.М. Экономическое прогнозирование: методы и приемы практических расчетов. М.: КНОРУС, 2018. – 168 с.
3. Хицков И.Ф и др. Методические подходы к разработке прогнозных моделей развития сельскохозяйственного производства ЦЧР РФ / //– Воронеж: ГНУ НИИЭОАПК ЦЧР РФ, 2014. – 64 с.
4. Войтюк В.А. "Организационно-экономический механизм развития экспортной деятельности аграрных предприятий: дисс. ... авт. к.э.н. - Орел, 2022.

5. Гаврилов А.И. Региональная экономика и управление: учеб. пособие. М.: Юнити-Дана, 2010. - С. 288.; Клепикова Н.И. Оценка эффективности создания отраслевого кластера // Фундаментальные исследования. – 2013. – № 4-4. – С. 934-939.
6. О.А.Бурянона. Прогнозирование развития сельского хозяйства района на среднесрочную перспективу”: дисс. ... авт. к.э.н. – Воронеж, 2007.
7. Бутакова М.М. Экономическое прогнозирование: методы и приемы практических расчетов. М.: КНОРУС, 2018. – 168 с.
8. И.Ф.Хицков и др. Методические подходы к разработке прогнозных моделей развития сельскохозяйственного производства ЦЧР РФ / //– Воронеж: ГНУ НИИЭОАПК ЦЧР РФ, 2014. – 64 с.
9. Pray, C.E. (2001). *Public-private sector linkages in research and development: Biotechnology and the seed industry in Brazil, China and India*. American Journal of Agricultural Economics.
10. Гаврилов А.И. Региональная экономика и управление: учеб. пособие. М.: Юнити-Дана, 2010. - С.288.
11. Xudoyberganova D.A. Meva-sabzavotchilik klasterlari korxonalarini boshqaruv samaradorligini baholash. // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. 2024-yil 9-son. 102 b.
12. Xudoyberganova D.A. Mamlakatimizda Meva-sabzavotlarni qayta ishlovchi korxonalarnirivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari. // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. -2024.-№-6. 654-657 b.
13. Xudoyberganova D.A. O'zbekistonda Meva-sabzavotlarni qayta ishlovchi korxonalarningzarurati va rivojlanish holati. // “Yangi O'zbekiston iqtisodiyoti” jurnali. -2024. - №- 7. – 176-181 b.